



“ALKIMYOGAR” ROMANIDA SANTYAGO OBRAZI VA RAMZLAR TALQINI

No'monova Mohlaroyim,

Alisher Navo'i nomidagi Toshkent

davlat o'zbek

tili va adabiyoti

universitrtining tarjima nazariyasi va

amaliyoti fakulteti 4-bosqich talabasi.

numonovamohi20@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola braziliyalik adib Paulo Koeloning dunyoga mashhur “Alkimyogar” romanidagi Santyago obrazini ramzlar asosida o‘rganishga bag‘ishlanadi. Muallif ijodi insonning o‘zligini anglash, ma’naviy uyg‘onish va hayot ma’nosini izlash kabi falsafiy masalalar bilan yo‘g‘rilgani bilan ajralib turadi. Mazkur tadqiqotda Santyagoning sayohati nafaqat syujet rivojining markazi sifatida, balki qahramonning ichki dunyosini ochib beruvchi ma’naviy yo‘l sifatida talqin etiladi. Maqolada romanda uchraydigan ramziy obrazlar — tush, tabiat manzaralari, sahro, qushlar, shamol, belgilar va alkimyogar timsollari badiiy-falsafiy mazmun doirasida sharhlanadi. Ushbu ramzlar Santyagoning ruhiy yetilishi, qarorlar qabul qilishi va dunyoni yangicha anglash jarayonida qanday ma’no kasb etishi keng yoritiladi. Tadqiqot asarda qo‘llangan ramzlar orqali insonning hayotiy izlanishlari, o‘z maqsadini tushunishi va ichki kechinmalarini anglash jarayoni badiiy jihatdan qanday ifodalanganini ko‘rsatadi. Maqola “Alkimyogar” romanining mazmuniyqatlamlarini ochib, Santyago obrazining ma’naviy-falsafiy mohiyatini chuqur tahlil qiladi hamda Paulo Koeloning badiiy uslubini talqin etishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar:Santyago obrazi,ramzlar,inson va taqdir,shaxsiy tanlov,falsafiy tahlil orzu va maqsadlar.



Abstract: This article is devoted to the study of the symbolism reflected in the character of Santiago in the world-renowned novel *The Alchemist* by Brazilian writer Paulo Coelho. The author's literary style is distinguished by his exploration of philosophical themes such as self-awareness, spiritual awakening, and the search for the meaning of life. In this study, Santiago's journey is interpreted not only as the central element of the plot but also as a spiritual path that reveals the hero's inner world. The article analyzes the symbolic images found throughout the novel—such as dreams, natural landscapes, the desert, birds, the wind, signs, and the figure of the alchemist—within a literary-philosophical framework. These symbols are examined in terms of their role in Santiago's spiritual growth, decision-making, and transformation of worldview. The research highlights how symbolic elements express human life quests, the understanding of personal goals, and the inner emotional experiences depicted in the novel. This article reveals the deeper semantic layers of *The Alchemist*, provides an in-depth interpretation of Santiago's character from a symbolic perspective, and contributes to the understanding of Paulo Coelho's artistic vision.

Keywords: Santiago's character, symbols, man and destiny, personal choice, philosophical analysis, dreams and goals.

Paulo Koelo (1947-yilda Braziliyada tug'ilgan) zamonaviy dunyo adabiyotining mashhur yozuvchisi hisoblanadi. Uning asarlari inson ruhiy o'sishi, ichki izlanish va hayotiy maqsadlarga erishish mavzulariga bag'ishlangan. "Alkimyogar" (1988) romani esa dunyo bo'ylab minglab o'quvchilarni o'ziga jalb qilgan, falsafiy va ramziy mazmunga ega asar sifatida tanilgan. Asarda yosh cho'pon Santyago bosh qahramon sifatida tasvirlanadi. U oddiy hayot kechirayotgan bo'lsa-da, takrorlanuvchi tushlar, baxtini izlovchi inson timsolidir. Uning soddaligi, pokligi, halolligi va qat'iyati butun asardavomida yorqin gavdalanadi. U yo'l davomida ko'plab sinovlarga duch keladi, ammo har safar ichki ovoz qalbni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Santyagoning insongaxos fazilatlarini ishonch, sabr, mehribonlik,



zakovat va qat'iyat uni boshqa qahramonlardan ajratadi. U dunyoni hamma kabi faqat tashqi ko'rinishlar orqali emas, balki o'z ichki dunyosi va o'zgacha hayolot olami bilan qarar edi. Atrofdagi hodisalarni, tabiat belgilarini tushunishga urinishi Santyago ruhiy o'sishining eng muhim bosqichidir. Asarda Alkimyogar obrazining mavjudligi Santiago uchun ruhiy ustoz vazifasini bajaradi. Alkimyogar unga "Xazina yo'li" faqat moddiy

boylik emasligini, eng katta xazina bu insonning o'zini tanishi ekanligini anglatadi. Santyago aslida oddiy cho'pon bo'lsa-da, yo'li davomida ko'rgan-kechirganlari uni ma'naviy jihatdan o'zgartiradi. Uning har bir xatti-harakatida orzuga sodiqlik, o'z yo'lidan qaytmaslik mujassam aks ettirilgan. U bir paytning o'zida qo'rquvni ham, jasurlikni ham his etadi lekin u qo'rquviga bo'ysunmaydi. Shuning uchun ham u haqiqiy "qahramon yo'lovchi" timsolidir. Atrofdagilar ko'pincha uning orzularini kulguga oladi, unga ishonmaydi, uni sodda deb biladi. Lekin aynan shu soddalik, poklik, qalb tozaligi Santyagoni ulug'vor qiladi. U yolg'iz emas, chunki olam uni yo'l bo'yicha qo'llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, Santyago o'zining shaxsiy afsonasini topadi va eng muhim haqiqatni anglaydi: xazina bu insonning ichida ya'ni qalbida yashiringan bo'ladi. Agar sen biror narsani chin dildan xohlasang, butun koinot seni ungayetkazish uchun harakat qiladi"[4:92]. Ushbu jumladan inson taqdiri yo'lida harakat qilishda davom etarkan, qancha qiyinchiliklarga qaramay albatta biror bir natijaga erisha olish imkoniyati tog'risidagi g'oyani ilgari suradi. "Alkimyogar" romani taqdir va inson shaxsiy iroda o'rtasidagi murakkab munosabatni markaziy mavzu sifatida yoritadi. Asar bosh qahramoni Santyagoning hayoti bizga shuni ko'rsatadiki, inson taqdiri qat'iy belgilangan bo'lishi mumkin, lekin bu belgilanish insonning ichki harakatlari va qarorlariga bog'liq. Taqdir bu yerda "yo'l-yo'riq", "imkoniyatlar" sifatida ko'rsatiladi, ya'ni u insonning oldiga qiyinchiliklar va imkoniyatlarni qo'yadi, lekin ularni amalga oshirish yoki ulardan voz kechish insonning o'z irodasiga bog'liq. Santyagoning orzulari va maqsadlariga erishish yo'lida duch keladigan to'sqinliklar, shaxsiy va tashqi muammolar, uning



taqdir va shaxsiy iroda o'rtasidagi munosabatini yanada yorqinlashtiradi. Muallifning aytishicha, inson hayotidagi to'rt asosiy to'sqinlik mavjud: bolalik chog'ida o'rganilgan stereotiplar va jamiyatning ijtimoiy cheklovlari, sevgiga yoki yaqinlarga bo'lgan bog'liqlik, yo'l davomida duch keladigan muvaffaqiyatsizliklardan qo'rqish, shuningdek, ichki shubha va o'zini past baholash. Ushbu to'rt to'sqinlik Santyago hayotidagi qarorlar va safar davomida duch keladigan ichki sinovlarni aks ettiradi. Santyagoning taqdiri romanda ramziy belgilar orqali yanada kengroq yoritiladi. Masalan, qo'ylar, sahro va tanlov toshlar ("Urim va Tummim") uning hayotidagi muhim voqealarni ramziy tarzda ifodalaydi. Har bir ramz inson hayotidagi qiyinchiliklar, qarorlar va imkoniyatlarni bildiradi. Shu tariqa, Koelho o'quvchiga shuni ko'rsatadiki, taqdir insonning oldiga faqat imkoniyatlar qo'yadi, lekin ularni amalga oshirish yoki ulardan voz kechish Santyago kabi shaxsiy iroda va tanlovga bog'liq. Bundan tashqari, Santyagoning safari orqali taqdir masalasi falsafiy jihatdan ham yoritilgan. Taqdir va shaxsiy tanlov o'rtasidagi uyg'unlik, insonning o'z ichki ovozi, orzu va intilishlariga rioya qilishi orqali namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida romanning falsafiy g'oyasini tashkil qiladi. Inson orzusiga erishish yo'lida tashqi muammolarni yengish va ichki qo'rquvlarni yengish zarur, va shunda haqiqiy taqdir ochiladi. Shuningdek, Santyagoning har bir qadamida taqdir va shaxsiy tanlovning uyg'unligi ko'rinadi. Misol uchun, u qiyin sharoitlarda qaror qabul qilganda, o'z ichki ovozini tinglab, xavf-xatar va qo'rquvlarni yengadi. Shu jarayon orqali u o'z taqdirini shakllantiradi va orzulariga erishadi. Boshqacha qilib aytganda, taqdir — inson hayotida passiv belgilangan bir narsa emas, balki faqat imkoniyatlar va sinovlarni yaratadi, lekin ularning natijasi insonning shaxsiy harakatlari bilan aniqlanadi. "Alkimyogar" romanining eng asosiy falsafiy g'oyasi — insonning ichki dunyosi, orzulari va taqdir o'rtasidagi uyg'unlikdir. Asarda ramzlar orqali bu g'oya yanada yorqin ifodalanadi. Xazina ramzi insonning tashqi boyliklarga emas, balki ichki kamolot, ruhiy o'sish



va o‘zini anglash jarayoniga intilishini bildiradi. Santyago safar davomida xazinani qidirish orqali o‘z ichki dunyosini kashf qiladi va shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy boylik inson qalbida yashirin, uni topish esa shaxsiy iroda va sabr-toqat bilan bog‘liq. Qo‘ylar ramzi orqali inson hayotidagi oddiylik, poklik va boshlang‘ich holat ifodalanadi; ular Santyagoning soddaligi va halolligi orqali murakkab hayotiy sinovlarga tayyorlanish jarayonini aks ettiradi. Sahro ramzi esa inson ruhiy o‘lishining eng muhim bosqichini, qiyinchiliklar va ichki sinovlar orqali o‘zini anglashni ifodalaydi. Shu tarzda, sahro faqat tashqi muhit sifatida emas, balki inson ichki dunyosi va ongining sinov maydoni sifatida ramziy ma’no kasb etadi. Tanlov toshlari (“Urim va Tummim”) inson qarorlari va tanlovining falsafiy ramzidir. Ular Santyagoga murakkab vaziyatlarda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi va shuni anglatadiki, taqdir faqat imkoniyatlarni beradi, lekin uni amalga oshirish yoki rad etish insonning shaxsiy iroda va tanloviga bog‘liq. Shu bilan birga, Alkimyogar ramzi ruhiy ustoz sifatida Santyagoga hayotning eng katta xazinasini — o‘zini anglash va ruhiy kamolot ekanligini tushuntiradi. Bu ramz orqali romanda insonning ichki dunyosi va tashqi olam o‘rtasidagi uyg‘unlik falsafiy jihatdan yoritiladi. Koelho asarda shaxsiy afsona g‘oyasini ham ilgari suradi: har bir insonning hayotidagi orzu va maqsad uning shaxsiy afsonasidir va unga erishish uchun inson o‘z ichki ovozi tinglashi, sabr-toqatli va qat’iyatli bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, koinot bilan uyg‘unlik g‘oyasi ham romanda falsafiy tarzda ochib beriladi: “Agar sen biror narsani chin dildan xohlasang, butun koinot seni uni amalga oshirishga yordam berish uchun harakat qiladi.” Bu g‘oya shuni ko‘rsatadiki, insonning ichki intilishi va orzulari bilan uyg‘unligi tashqi olamning qo‘llab-quvvatlashini uyg‘otadi, ya’ni inson va koinot o‘rtasidagi uyg‘unlik hayotiy maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Paulo Koelhoning “Alkimyogar” asari inson hayoti va shaxsiy iroda o‘rtasidagi bog‘liqlikni falsafiy ramzlar orqali ochib beradi. Santyago obrazida insonning orzu



qilish, ichki sezgi va qat'iyat orqali hayot yo'lida harakat qilishi, shuningdek, duch keladigan qiyinchiliklar orqali ruhiy o'sishi ko'rsatiladi. Romandagi ramzlar, masalan, xazina, sahro, qo'ylar va tanlov toshlari, insonning ichki rivojlanishi va qarorlarining mazmunini chuqurlashtiradi. Asarda shaxsiy tajriba va ichki intilishlar hayotdagi imkoniyatlar bilan uyg'unlashganda haqiqiy ma'noga ega bo'lishi falsafiy jihatdan yoritilgan. Santyagoning sayohati o'quvchiga shuni tushuntiradiki, inson orzulariga erishish yo'lida faqat tashqi omillar emas, balki shaxsning o'z irodasi, sabr-toqati va tanlovi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan "Alkimyogar" o'quvchiga hayotda xazina faqat tashqi boyliklarda emas, balki inson qalbi va ruhiy o'sishida yashirinligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Koelho, P. (2001). Alkimyogar (o'zbekcha tarjima). Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Jalilova, S. R. (2025). "Alkimyogar romanining ramziy falsafiy tahlili." Development and Innovations in Science, 4(7), 31–33.
3. Fayziyeva, S. S. qizi & Yusupov, S. Sh. o'g'li. (2025). PAULO KOELONING "ALKIMYOGAR" ROMANIDA "TAQDIRNING YOZILISHI" MASALASI. Лучшие интеллектуальные исследования, 46(5), 334–337. Retrieved from <https://scientific-jl.com/luch/article/view/20221/19695>
4. Tursunov, F. B. O'g'li. (2024). "Alkimyogar asarida muhabbat mavzusini ochib berishdagi usullar." Наука и инновация, 2(20), 183–185.
5. Mutolaa.com. (n.d.). Alkimyogar — ma'lumot va ta'rif. Retrieved from <https://mutolaa.com/uz/book/alkimyogar/>